

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH  
BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“QUYMAKORLIK TEXNOLOGIYALARI”**

**yo'nalishi**

**“QUYMAKORLIK ISHLAB CHIQARISH PECHLARI”**

**moduli bo'yicha**

**O'QUV –USLUBIY MAJMUA**

**Toshkent 2022**

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrdagi 538 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchilar:** prof. Rasulov S.A., katta o‘q. Saidxodjayeva SH.N., Abdullayev F.K

**Taqrizchi:** TDTU, “Kuymakorlik texnologiyalari” kafedra t.f.n. dotsenti Xalimjonov T.S.

O‘quv-uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021-yil 29-dekabrdagi 4-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .....	3
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI .....	8
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	17
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI .....	51
V. GLOSSARIY .....	60
VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.....	63

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, quymakorlik ishlab chiqarishning nazariy asoslari, quyma detallarni loyihalash, quymalarni maxsus quyish usulida tayyorlash, quymani tayyorlab olishning finish jarayonlari, induksion pechida sintetik cho‘yanni suyuqlantirish va quyma tayyorlash texnologik jarayonini ishlab chiqish hamda istiqbolli jarayonlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan

### MODULNING MAQSADI VA VAZIFALARI

**Modulning maqsadi:** Quymakorikda yangi texnologik jarayonlarini hamda samarali texnologiyalarini, qayta ishlashning istiqbolli yechimlari kabi manbalarni o‘rgatishdan iborat.

#### Modulning vazifalari:

Bugungi kun talablariga mos holda, quymakorlik texnologiyalarini qo‘llagan xolda sifatli quyma maxsulot olish sifatini ta’minlash maqsadida oldingi va hozirgi texnologiyalarni taqqoslash; quymakorlik ishlab chiqarishni loyihalash va hisoblashning uslubiy prinsiplariga qaratilgan texnologik jarayonlarni tanlash; quymakorlikda so‘ngi jarayonlarni

va termik ishlov berishni quymani aniqligiga ta'siri jarayonlarining samaradorligini aniqlash.

## **Modul bo'yicha tinglovchilarning biliimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

“Quymakorlik ishlab chiqarish pechlari” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi**

- rivojlangan xorijiy davlatlarda va respublikada quymakorlik texnologiyalarini zamonaviy ahvoli va istiqbollari;
- quymakorlikda yangi texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlariga qo'yiladigan talablari;
- quymakorlikda korxonalarida hosil bo'ladigan chiqindilarni atrof- muhitga ta'siri **bilimlarga ega bo'lishi**;

### **Tinglovchi**

yupqa devorli, murakkab shakldagi yoki katta o'lchamli quymalarni nuqsonisz tayyorlash texnologik sxemalarini tuzish;

- quyma detal devorlarining kristallanish sharoiti turlicha bo'lganligi sinflaraga va turlarga ajratish;
- ishlab chiqarishni arzonlashtirish va aniqligini oshirish uchun imkon boricha quymaning shaklini soddalashtirish jarayonlarni tanlash **ko'nikma va malakalarini egallashi**;

### **Tinglovchi:**

- qumli qoliplarda tayyorlangan quymaning geometrik o'lchami aniqligi,
- sirt g'adir-budirligi ko'p xolatlarda zamonaviy texnik talablarni quyishning maxsus usullari; qobiq qoliplarga quyish,
- eriydigan modellar bo'yicha, bosim ostida quyish,
- markazdan qochma va boshqa quyish usullarini avtomatlashtiruvchi texnologiyalarni ishlab chiqish **kompetentsiyalarini egallashi lozim**.

## **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Quymakorlik ishlab chiqarish pechlari” kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar

shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limgardagi zamonaliviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaliviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, test so'rovlari, aqliy hujum, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'limgardagi usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

“Quymakorlik ishlab chiqarish pechlari” moduli mazmuni o'quv rejadagi “Mashinasozlikda quyma maxsulotlarni olish texnologiyasi” va “Mashinasozlikda sifatli qotishmalarni suyuqlantirish texnologiyalari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning rangli metallurgiya bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta'limdagi o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar rangli metallurgiyada istiqbolli yo'nalish va texnologiyalarga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				
			jumladan				Mustaqil ta'lim
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot		
1.	Suyuqlantiruvchi pechlarda kechadigan jarayonlar	6	6	2	2	2	
2.	Maxsus elektr pechlarda po'lat eritib olish	6	6	2	2	2	
3.	Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirib olish	4	4	2	2		

4.	Suyuqlantirishning prinsiplari va usullari	asosiy	2	2		2		
	<b>Jami:</b>		<b>18</b>	<b>18</b>	<b>6</b>	<b>8</b>	<b>4</b>	

## **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu. Suyuqlantiruvchi pechlarda kechadigan jarayonlar.**

Pechlarda kechadigan jarayonlar. Induktsion pechlarda cho'yanni suyuqlantirish. Cho'yanni yoyli elektr pechlarda suyuqlantirish. Eritish jarayoni. Qotishmalarni eritish issiqlik almashinish jarayonlari. Issiqlik va massa almashinuv jarayonlari.

### **2-mavzu. Maxsus elektr pechlarda po'lat eritib olish.**

Maxsus elektr pechlari. Vakuum – yoy pechlari. Elektron-nur pechlari. Plazma-yoy pechlari. Garnisaj vakuum pechi. Elektron-nur pechlarining ishlash printsipi. Gaz bilan ishlaydigan plazmatron.

### **3-mavzu. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirib olish.**

Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish. Rafinirlash usullari. Yuqori sifatli kotishmalar olish. Alyuminiy qotishmalarda gazlar va flyus bilan tozalash. Qotishmalarni vakuumlash, vakuum ostida suyuklantirish va quyish.

## **AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**

### **1-amaliy mashg'ulot: Induktsion pechining tuzilishi.**

IST 006 induktsion suyuqlantirish moslamasini tuzilishini o'rganish. Bunda tok manbaidan uzilgan holda ishlash printsipini o'rganish.

### **2-amaliy mashg'ulot: Po'latni induktsion pechida suyuqlantirish.**

Eritish texnologiyasini o'rganish, po'latni induktsion pechida suyuqlantirish uglerodlovchi qo'shimchalar bilan modifikatsiyasini (turlanishini) o'rganish.

### **3-amaliy mashg'ulot: Quymalar uchun alyuminiy qotishmalarini suyuqlashtirish.**

Induktsion pechida alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish va qolipga quyishni o'rganish.

#### **4-amaliy mashg'ulot: Suyuqlantirish jarayoniga bog'liq bo'lgan nuqsonlarni tahlili.**

Quymakorlik nazariyasiga bog'liq bo'lgan nuqsonlar. Quymakorlik qotishmalarini suyuqlantirishga va qolipga quyishga bog'liq nuqsonlarni tahlil qilish.

#### **KO'CHMA MASHG'ULOT MAZMUNI**

##### **1-mavzu: Suyuqlantiruvchi pechlarda kechadigan jarayonlar**

##### **2-mavzu: Maxsus elektr pechlarda po'lat eritib olish**

Ko'chma mashg'ulot A.J.Agregat zavodining "Quyish" sexida o'tkazilishi rejalashtirilgan. Tinglovchilar sexda yangi texnika va texnologiyalar bilan tanishadi va mavzu bo'yicha ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.

#### **TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI**

Ta'limenti tashkil etish shakllari aniq o'quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni, yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

- Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'limming tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:
- ma'ruza;
- amaliy mashg'ulot;
- ko'chma mashg'ulot.
- O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:
- jamoaviy;
- guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishslash** – Bunda o'qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv maqsadiga erishish uchun o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

**Guruhlarda ishslash** – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruxlarda ishslashda (3 tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limenti tashkil etish shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo'lish mumkin.

Bir turdag'i guruhli ish o'quv guruhlari uchun bir turdag'i topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta'lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## **II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.**

### **Xulosalash» (Rezyume, Veer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarining mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

## Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### Mavzuga qo'llanilishi

Quymakorlik pechlar					
Vangranka pechi		Yoy pechi		Induksion pechi	
kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	камчилиги	афзаллиги	камчилиги
Xulosa:					

### «FSMU» METODI

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

#### Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni

tarqatiladi:

<b>F</b>	<b>Fikringizni bayon eting</b>
<b>S</b>	<b>Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating</b>
<b>M</b>	<b>ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring</b>
<b>U</b>	<b>Fikringizni umumlashtiring</b>

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi. FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'лади.

### **MAVZUGA QO'LLANILISHI:**

**Fikr: “Quymakorlik texnologiyasida eng samarali usul bu Induksion pechida suyuqlantirish jarayonidir”.**

**Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.**

#### **«Aqliy hujum»**

- **Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo'roni)** – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.
- Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.
- **Aqliy hujumning asosiy vazifasi** – o'qib-o'rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, fikrlash

inersiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini yengish.

- **To‘g‘ridan-to‘g‘ri jamoaviy aqliy hujum** – iloji boricha ko‘proq fikrlar yig‘ilishini ta'minlaydi. Butun o‘quv guruhi (20 kishidan ortiq bo‘lmagan) bitta muammoni hal etadi.
- **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlarga bo‘lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.
- Har bir guruh ichida umumiylar muammoning bir jihatni hal etiladi.

#### **Aqliy hujum uchun tinglovchilarga beriladigan savollar:**

1. Metall ishlab chiqarish sohaviy tendensiyalar
2. Cho‘yanni suyuqlantirish usullarini ayting.
3. Elektro pech jarayoning kechishi.
4. Po‘latlarni tozalash.
5. Quymakorlik usullarni qo‘llab cho‘yan eritish usullarini ayting.

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### 1-Mavzu. Suyuqlantiruvchi pechlarda kechadigan jarayonlar.

**Reja:**

1. Pechlarda kechadigan jarayonlar.
2. Induksion pechlarda cho‘yanni suyuqlantirish.
3. Cho‘yanni yoyli elektr pechlarda suyuqlantirish.


**Tayanch so‘z va iboralar:** Qotishma, metall-futerovka, metallurgiya, pech, suyuq metall, induksion pech, dupleks-protsess, suyuklantirish, cho‘yan, yoyli pechlar, elektrodlar, yoy pech vannasi, toshqol, desulfuratsiya, shlak, shixta, massa, suyuq shlak, gaz faza, issiqlik tashuvchi, kimyoviy reaksiya, geterogen, metall-shlak.

#### 1.1. Pechlarda kechadigan jarayonlar.

Eritish jarayoni, aniqrog‘i suyuq metall yoki qotishmani olish jarayoni, murakkab fizik-kimyoviy jarayonlarning birikmasi bo‘lib, ularning kechishi yo‘nalishi va chuqurligi qattiq va suyuq metall, suyuq shlak va gaz fazalarining tuzilishi va xossalariiga bog‘liq.

Pech futerovkasi ham odatda, qotishmani olish jarayonida ishtirok etadi.

Qotishmalarni eritish issiqlik almashinish jarayonlarini keng qo‘llashga asoslangan bo‘lib, massa almashinuv jarayonlari bilan kechadi. Issiqlik va massa almashinuv jarayonlarida barcha to‘rtta faza ishtirok etadi (1-rasm).



**1-rasm. Eritishning metallurgik jarayonining umumiy sxemasi**

Issiqlik almashinushi, ya’ni issiqlik ajralib chiqishi, uning jadalligi va issiqlik tashuvchining xarakteri massa almashinushi va butun eritish jarayoniga sezilarli ta’sir o’tkazadi.

O’t alanganli pechlarda eritishda issiqlik gazlardan metallga o’tadi, elektr induksion pechlarda esa, issiqlik bevosa metallning o‘zidan ajralib chiqadi. Shuning uchun birinchi vaziyatda gaz fazasi aktiv hisoblanadi va shlak fazasini ham aktivligini hosil qiladi, biroq ikkinchi vaziyatda gaz va shlak fazalari passiv bo‘ladi.

Energiya va massaning saqlanish qonunlariga muvofiq eritish jarayoni uchun yetarli aniqlikda ikkita tenglamani yozish mumkin:

$$Q_e + Q_{uu} + Q_m + Q_\phi = Q_{ucm} + Q_{nom} + Q_{es};$$

$$M_e + M_{uu} + M_m + M_\phi = const,$$

Bu yerda,  $Q_e, Q_{uu}, Q_m$  va  $Q_\phi$  - fazalarning issiqlik salmog‘i (gaz, shlak, metall, futerovka);  $M_e, M_{uu}, M_m$  va  $M_\phi$  - ularning massalari;  $Q_{is}$  - issiqlik manbasidan kelayotgan issiqlik;  $Q_{yuq}$  - atrof-muhitga issiqliknинг yo‘qotilishi;  $Q_{aj}$  - kimyoviy reaksiyalar tufayli ajralib chiqayotgan issiqlik, ya’ni o‘zaro ta’sir issiqligi.

Tenglama asosida fazalarning quyidagi o‘zaro ta’sirlarini: 1 - metall- gaz, 2 - metall-shlak, 3 - metall-futerovka, 4 - shlak-gaz, 5 - shlak-futerovka, 6 - gaz-futerovka ko‘rib chiqish mumkin.

Gaz va metallarning o‘zaro ta’sirida, ya’ni ular orasida kontakt bo‘lganda, quyidagi jarayonlar bo‘lishi mumkin:

- gaz komponentlarining qotishma komponentlari bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishi;
- metallda gazning erishi;
- metallni gazsimon xolatga o‘tishi;
- metallda gazning adsorbsiyasi.

Kimyoviy reaksiyalardan eng ko‘p kuzatiladiganlari oksidlanish- qaytarilash reaksiyalar hisoblanadi.

Metall va shlaklarning o‘zaro ta’sirida quyidagi jarayonlar bo‘lishi mumkin:

- qotishma komponentlarining shlak komponentlari bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishi;

- suyuq metall tarkibidagi elementlar bilan shlakning elektrolizi;
- qotishma komponentlarining shlakda va aksincha shlak komponentlarining qotishmada erishi.

Metall va futerovkaning o‘zaro ta’sirish quyidagilarni keltirib chiqarishi mumkin:

- metallga futerovka komponentlarining o‘tishi (erishi);
- qotishmaning komponentlari futerovka bilan kimyoviy reaksiyaga kirishishi.

Xuddi shunday jarayonlar shlak-futerovka bo‘linish chegarasida kechadi.

Shlak-gaz bo‘linish chegarasidagi jarayonlar metall-gaz bo‘linish chegarasida sodir bo‘layotgan jarayonlar bilan aynan o‘xhash bo‘ladi.

Bundan tashqari, har bir fazada yangi birikmalarni xosil qilishni tavsiflovchi ichki jarayonlar kechishi mumkin.

Eritish jarayonida ishtirok etayotgan har bir fazada komponentlarning ma’lum konsentratsiyasi mavjud

Geterogen reaksiyalar kinetikasi Fikning ikkinchi qonuni tenglimasi bilan ifodalanadi

$$\frac{\partial m_{\Theta_i}}{\partial \tau} = -\beta F (C_{\Theta_i} - C_{\Theta_i}^n),$$

Bu yerda,  $m_{\Theta_i}$  – komponent massasi;  $\beta$ - massa kochishi koeffitsiyenti ;  $F$ - faazalar orasidagi sirt;  $C_{\Theta_i}$  –  $\Theta_i$  - konsentratsiyasi, masalan, metalldagi;  $C_{\Theta_i}^n$  - bo‘linish sirtidagi  $\Theta_i$  konsentratsiya

Metall-shlak sirtidagi massa ko‘chishi jarayoni tenglamasi quyidagicha aks etadi

$$\frac{\partial m_{\Theta_i}}{\partial \tau} = -\beta_{M-W} F_{M-W} (C_{\Theta_i}^M - C_{\Theta_i}^{W,M})$$

Shunday tenglamani har bir bo‘linish sirtlari uchun yozib olish mumkin. Shubxasiz, massa ko‘chishining natijaviy differensial tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega


$$\frac{\partial m_{\Theta_i}^M}{\partial \tau} + \frac{\partial m_{\Theta_i}^W}{\partial \tau} + \frac{\partial m_{\Theta_i}^\phi}{\partial \tau} + \frac{\partial m_{\Theta_i}^e}{\partial \tau} = 0.$$

Metall va qotishmalarni eritishda massaning ko‘chish jarayonlari kechishi, fizik-kimyoviy sharoitlar, unda ishtirok etayotgan fazalarning tarkibi va tuzilmasiga bog‘liq bo‘lib, berilgan kimyoviy tarkibdagi ma’lum xossali qotishmalarni olishning asosi hisoblanadi.

## **1.2. Induksion elektr pechlarda chuyan suyuqlantirish**

Induksion pechda chuyan suyuqlantirishning fizik-kimyoviy xususiyatlari. Vagrakalar va yoy pechlardan farkli ularok induksion pechlarda suyuklantirish oldingi suyuqlantirishdan qolgan suyuq metallga shixta yuklab olib boriladi. Shu sababli shixtaning kizishi va suyuqlanishi uning komponentlarining suyuk. metallda erishiga boglik. Bunda fazalar orasida massa kuchirish va issiklik fakat kizitishga emas, balki eritishga xam sarflanishi sodir buladi.

Tigelning urta kismida xaroratlarning taksimlanishiga ta'sir kiladigan devor oldi aralashtirish zonasida kjorigi va pastki konturlar orasida «kulik» zona xosil bulishi xisobiga xaroratning maxalliy ortishi sodir buladi. Yukori xaroratli zonaning mavjudligi tigel reaksiyasining ketishiga ta'sir kiladi.



Bu reaksiyaning ketishi, shuningdek uglerod va boshka elementlarning erishi induksion pechda suyuklantirishning uziga xos xususiyati xisoblanadi. Jadvaldan kurinib turibdiki, uglerodning erishi ancha issiklik yutilishi, kremniyning erishi esa issiklikning ajralishi bilan sodir buladi. Binobarin, induksion pechlarda energetik jixatdan olganda kam kremniyli shixta materiallaridan foydalanish, undagi kremniy mikdorini esa ferrokotishmalar yordamida talab etilgan mikdorgacha yetkazish foydalidir.

1-jadval

Eritgich	Eriydigan komponent	$\Delta N$
entalpiyaning uzgarishi, J/g-atom		
Chuyan (3,3% S)	Pulat (0,6% S)	1360
Chuyan (3% S)	Koks	11723

Elementlar kuyindisi va utga chidamli koplamasi kislotali bulgan induksion pechda butun suyuqlantirish jarayoni tigel reaksiyasining muvozanatda bulishi bilan chambarchas boglangan. Induksion pechda tarkibida kremniy kam bulgan va uglerod mikdori kup bulgan chuyan suyuklantirilsa C va Si ning ayni konsentratsiyalari uchun muvozanat xaroratiga erishilganda tigel reaksiyasi boshlanadi, bu esa pech tigelining kup yeyilishiga

olib keladi. Shuning uchun koplamasi kislotali pechda sukj- lantirish x,arorati rejimini uta kizdirilayotgan suyuk chuyanning kimyoviy tarkibiga karab tanlash zarur.

Induksion pechda suyuqlantirish texnologiyasi. Induksion pechda suyuqlantirish texnologik jarayoni shixtani yuklash, uni kizdirish va suyuqlantirish, uta kizdirish, uglerodlash va chuyanning kimyoviy tarkibini berilgan tarkibga yetkazish, shuningdek termovakt ishlovi berishni (saklab turish) uz ichiga oladi. Yuklanadigan shixta kisman suyuqlanmaga botirilib elektr utkazadigan sidirga muxit xosil kilinadi va bu muxitda induktor bilan uyurma toklar xosil kilinadi. Suyuk metallga (oldingi suyuqlantirishdan kolgan «batqoq» deb ataladigan koldik) shixta shuning uchun xam botirib yuklanadiki, sanoat chastotali elektr tokidan foydalanilganda shixtaning diskret elementlarida uyurma toklarni xosil kilish kam samara berar ekan, chunki ular metallni kizdiradi va u suyuqlanadi.

«Botqoq» massa pechdagи metall umumiyl massasining 50 % ini tashkil qilishi mumkin va tegishlicha suyuqlantirish davrlarining davomiyligiga ta'sir kiladi. «Batqoq» ka yuklash bir necha boskichda amalga oshirilishi mumkin. Masalan sig‘imi 12 t bulgan pechda va sig‘imi 5 t bulgan «botkok»da suyuqlantirganda kuyidagi ketma-ketlikka va davrlarning davom etishiga rioya kilinadi: 5—6 t shixtani yuklash (kaytarishdan tashkari) 15 min, suyuqlantirish 1 soat 5 min, kimyoviy tarkibni me'yoriga yetkazish 40 min, kaytarilgan chuyanni (2t) yuklash 10 min, kaytarilgan metallni suyuklantirish 15 min, x,aroratiga kura me'yoriga yetkazish va toshkolni nasos bilan chikarib tashlash 25 min. Shunday kilib, pechning bir soatdagi ish unumi uning SIRIMINING taxminan 1 /3 ini tashkil kiladi.

Shixtani kizdirish va suyuqlantirish vaktida temir oksidlanadi. Xavo kislrodi temir aralashmalarini xam oksidlaydi. Temir, kremniy va marganets oksidlari toshkol xosil kiladi.

Induksion pechlarda chuyanni suyuqlantirishda FeO dan temirni tiklash uchun karbyurizator sarflash va ferrokotishmalarni tejash maksadga muvofikdir. Suyuklantirishni suyuqlanma tarkibida kremniy va marganets mikdori kam va uglerod mikdori kup bulganda amalga oshirish lozim. Buning uchun karbyurizatorni tigel tubiga, ferrosilitsiy va ferromarganetsni esa suyuk chuyan suyuqlangandan va uta kizdirilgandan keyin uning ustiga tashlash zarur. Tarkibida uglerod bulgan FC75 va FMn5 kushilmalarni yuklagichga yuklaganda S, Si va Mn larning kuyindilari tegishlicha 18—25; 30—32 va 52—55 % ni

tashkil kiladi. Agarda karbyurizator tashlansa, FC75 va FMnS lar pech 1550°C gacha kizdirilib va 1440—1460°C gacha sovutilgandan keyin kushiladi, bunda C kuyindisi 30—35% gacha ortadi, Si va Mn kuyindisi esa tegishlicha 5—7 xamda 18—24 % gacha kamayadi; shu boisdan, shuningdek komponentlarning suyuklanish, issiklik effektlarini xisobga olib, birinchi navbatda karbyurizator va pulat siniklarini, ular suyuklangandan keyin esa chuyanning sinik parchalar xamda kaytgan chuyanni tashlash lozim. Ferrokotishmalar eng oxirida (me'yoriga yetkazish uchun) kushiladi.

Induksion pechda suyuklantirishda toshkollar kovushokligi katta buladi, chunki ularning tarkibida 60—70 % SiO<sub>2</sub> bor va xarorati past buladi, bu esa toshkol bilan birgalikda metallning kup isrof bulishiga olib keladi. Ularning tarkibi suyuklantirish rejimi, elementlarning kuyishi va oksidlarning utga chidamli koplam yuza katlamidan toshkolga utishiga boglik. Toshkollarning kislotaliligi suyuklantirish boshidagi 0,9—1,1 dan xarorat 1500°C ga kutarilganda 6—8 gacha ortadi. Toshkoldagi temir oksidlarining mikdori 40 dan 10 % gacha kamayadi, SiO<sub>2</sub> ning mikdori esa 40 dan 70 % gacha ortadi. Kolgan komponentlarning mikdori deyarli uzgar- maydi (2—3% CaO; 0,5—2,5% Mn; 7—14% A12O<sub>3</sub>). ZYugmikdorining ortishi past xaroratga ega bulgan SiO<sub>2</sub>-p FeO-m MnO tipidagi murakkab birikmalarni xosil bulishi xisobiga, uning utga chidamli koplamdan utishi, shuningdek FeO ning kamayishi xisobiga uning toshkolda—gi solishtirma ulushini ortishi bilan tushuntiriladi. FeO yukori xaroratda asosan chuyan uglerodi bilan tiklanadi.

Chuyanning uglerodlanishi va uni ma'lum kimyoviy tarkibgacha yetkazish induksion pechda chuyan suyuklantirish operatsiyalaridan eng muximi xisoblanadi. Induksion pechda chuyan suyuklantirishni yakunlovchi operatsiyasi termo- vakt ishlovi berishdir. Bu operatsiya suyuklanmani gomogenizatsiyalash va dastlabki shixta materiallarining zararli irlari ta'sirini kamaytirish maksadida bajariladi. Termovakt ishlovi berish tigel reaksiyasining muvozanat xaroratidan 50°C ortik xaroratda tutib turishdan iboratdir. Tutib turish 5 min. dan (SCH 20 cho'yani uchun) 20 min. gacha (SCH 45 cho'yan uchun) davom etadi.

### **1.3.Cho'yan suyuklantirish poliprotsesslari**

Birlamchi agregatlarda (V, DP, ITP) sodir buladigan barcha jarayonlar monoprotsesslar vositasida sujklantirishning tegishli metodlari uchun yukorida kurib utilganlarga aynan uxshashdir. Ikkilamchi agregatlarda (DP, ITP, IKP) chuyan kimyoviy tarkibining uzgarishi

suyuk metallni toshkol va pech koplamasi bilan uzaro ta'siriga boglik. ARU bilan dupleks yoki tripleksda barcha jarayonlar birlamchi agregatlar va kutish pechida utadi. ARU da kimyoviy tarkib deyarli uzgarmaydi.

Dupleks-protsesslar kimyoviy tarkibni goyat sezilarli darajada uzgarishi va xatto kattik shixta materiallarini (masalan, kaytgan chuyan va VCH ni sujklantirishdagi boshka chikindilar) kushib amalga oshiriladi. Bunday jarayonlar fakat DP va ITP da amalga oshirilishi mumkin. Bunday xolda suyuklantirish jarayoniga kattik shixtani suyuk kuyim bilan kisman almashtirgandagi monoprotsess kabi kurib chikish lozim, bu esa induksion pechda suyuklantirishda monoprotsess uchun xam xosdir.

Shixta va boshka kushilmalar kiritilmaydigan dupleks-protsessda kimyoviy tarkibning uzgarishi kuyindi, shuningdek elementlarning kurumi va suyuk metall porsiyasining kuyilishi va olinishiga boglik.

Birinchi dupleks-protsess uchun vagrankaning yoy pechi bilan birga kushilishidan foydalilanilgan edi. U bir necha un yillar mukaddam bolgalanuvchan chuyani (KCH) ni suyuklantirishda kullanila boshlangan. Bu dupleks-protsess vositasida suyuklantirish texnologiyasi kuyidagidan iborat: shay kilib kuyilgan yoy pechi koliplariga kuyib chikishdan 1—2 soat oldin vagrankadan suyuk chuyan kuyiladi. Chikindilardan foydalanylbganda sharsimon grafitli chuyan (VCH ishlab chikishda amalda kullaniladi) ular pech tubiga to vagranka chuyani okib tushmaguncha yuklanadi. Chuyan yoy pechiga kuyilgandan keyin me'yoriga yetkazish davrida monoprotsess olib borilishiga uxshash olib boriladi. Yey pechlarda chuyanni kimyoviy tarkibi uzgarishi tufayli uni ekspress-analiz natijalariga kura korrektirovka kilish zarur. Kanalli pechlardan foydalanylbganda chuyanning kimyoviy tarkibi deyarli uzgarmaydi.

Dupleks-protsess vagranka-kanalli induksion pech jaxon amaliyotida keng tarkalgan. Bu pech Rossiya dagi ZIL, GAZ va boshka zavodlarda joriy kilingan. Bunday suyuklantirish usulini tarkibi va xarorati buyicha turgun bulgan katta xajmdagi metall talab etiladigan xollarda, masalan, avtomobillar va traktorlar kuplab ish-lab chikiladigan sexlarda kullash maksadga muvofikdir.

Kanalli pechlarda chuyan odatda belgilangan tarkibgacha yetkazilmaydi. Undan fakat suyuk chuyan tarkibini urtacha xisobga keltirish va kizdirish uchun foydalilaniladi. Zarur bulganda kushilmalar uzatish kovshlari yoki tarnovga kiritiladi. Chuyanni tarkibi va

xarorati buyicha urtacha xisobga kelirilishini ta'minlash uchun uning mikdorini doimo pech xajmining 2/3 kiyem baravar kilib saklab turish zarur.

Bunday dupleks-protsesslarda kupchilik xollarda bntta kanalli pech bilan ishlaydigan ikkita vagranka ishlatiladi. Suyuklantirish kompaniyasi uzok vakt davom etadigan (bir xafka va undan ortik) yangi vagranka odatdagagi ikkita vagrankaning urnini bosadi.

Suyuk cho'yanni kanalli induksion pechga uzatishda toshkolni sinchiklab ajratib olish kerak. Agar unga toshqol tushsa koplamaning yeyilishi keskin ortadi. Kanalli pechda tuplanib kolgan toshkolni vakti-vakti bilan chikarib tashlash zarur.

V-ITP dupleks-protsess xam mashinasozlik zavodlari- ning kuyish sexlarida keng tarkalgan. Tigelli induksion pechlarni ikkilamchi agregatlar sifatida kullanilishi smena davomida chuyanning bir nechta markasini olish imkonini beradi. Bu pechlarda ferrokotishmalar, karbyurizatorlar yoki pulat chikindilari kushib chuyan tarkibini korrektirovka kilish oson buladi.

ITP — IKN dupleks-protsessda chuyan mayda pulat siniklari va chikindilari asosida shixtalardan olinadi. Bu protsess tigelli induksion pechlarning texnologik afzalliklaridan foydalanishga imkon beradi.

VAZ da kulrang chuyang ishlab chikarishda tigelli sigimi 25 t bulgan induksion pechdan va sigimi 45 t bulgan kanalli pechdan iborat dupleks-protsessdan foydalaniladi. Shixta sifatida ishlab chikarish chikindilari kuyish sexida kaytarilgan metall va oz mikdorda kuyiladigan chuyandan foydaleniladi. Metall bitta pechdan boshkasiga tarnov yordamida uzutiladi. Shixtaning urtacha kimyoviy tarkibi (%): C — 2,179; Si — 2,078; Mn — 0,624; S — 0,05; P — 0,058; Cr — 0,184; Sn — 0,035; № — 0,0183; Cu — 0,089. Suyuklantirish operatsiyasi taxminan 3 soat davom etadi. Butun kuyma massasi taxminan 26 t ni tashkil kiladi. Yuklashni boshlagandan keyin 3 soatu 25 minut utgach 20 t chuyan kanalli pechga kayta kuyiladi. Bu chuyanning tarkibi (%): C — 3,35; Si — 1,97; Mn — 0,61; S — 0,045; P — 0,05; Cr — 0,15; Sn — 0,038; Ni — 0,29. Suyuklantirish toshkoli tarkibida  $\text{Pe}_2\text{O}_3$  — 42%; Si<sub>2</sub> — 42—53% ba MtO — 4,5—5,2 % bo'ladi.

Saqlab turish kanalli pechida chuyanning kimyoviy tarkibi deyarli uzgarmaydi: S — 3,325 dan 3,33% gacha; Si — 1,935 dan 1,90 % gacha; Mt — 0,595 dan 0,59 % gacha. Tigelli pechdan 20 t metallni kanalli pechga kuygunga kadar kanalli pechda suyuk metall koldigi (20 t ga yakin) buladi.

EP — ITP dupleks-protsess xam VAZ da kullaniladi. Bu yerda kattik shixta suyuklantiriladigan 40 t sigimli yoy pechi urnatilgan. Bu tigelli induksion pechlarda metall zarur bulgan kimyoviy tarkibgacha yetkaziladi va kuyish jarayonida yukori xaroratda saklab turiladi, kulrang chuyan (SCH), bolgalanuvchan chuyan (KCH), sharsimon grafitli chuyan (VCH) larni suyuklantirib olish uchun tarkibida asosan pulat chikindilari va kaytarilgan metall, shuningdek 11 % gacha kuyma chuyan (SCH uchun) va turli kushimchalar (FS, FMn, grafit) bulgan shixtalardan foydalaniladi.

Grafitni ancha tula uzlashtirish va tigelli pechga kuyishda yukotiladigan issiklik tuldirish uchun chuyanni pechdan kuyish kovshlariga uzatishda xarorat kushimcha 50°С ga uta kizdiriladi. Uta kizdirish xarorati 1520—1580°С atrofida uzgaradi.

Kimyoviy tarkib kremniy va marganets buyicha yoy pechida, uglerod buyicha metall kabul kilgichga grafit kiritib metallni induksion pechga berishda toshib kuyiladigan tarnovni korrektirovka kilinadi.

ITP — EP dupleks-protsessdan chuyanni chukur desul- furatsiya kilish zarur bulganda foydalaniladi. GAZ da bu jarayon sharsimon grafitli juda mustaxkam chuyandan tirsakli vallar ishlab chikarishda kullaniladi. Chuyanni suyuklantirish uchun sanoat chastotali RO-12 tigelli induksion pechlaridan, desulfuratsiyalash uchun esa asosli koplamaga ega bulgan DCHM- 10 yoy pechidan foydalaniladi.

EP-EP dupleks-protsess KaMAZ da kullaniladi. Chuyan sigimi 50 tonnali yoy pechlarida suyuklantiriladi va sigimi 75 t bulgan xuddi shunday pechlarga kayta kuyiladi. Pechda berilgan kimyoviy tarkibli suyuklanti- rilgan chuyan olinadi. Masalan, SCH-20 uchun kuyidagi tarkibdagi chuyan olinadi (%): C=3,3—3,45; 1,95—2,10; Mn<0,5—0,7; S=0,1; P=0,2; C=0,2—0,4; Ni= 0,1—0,2. Shixta sifatida asosan kaytarilgan metall va pulat chikindilari, shuningdek 10—15% kuyma kurinishi- dagi chuyan xamda 10 % ga yakin chuyan siniklaridan foydalaniladi.

Suyuklantirish asosli toshkollarda olib boriladi. Nisbat  $\text{SiO}_2 / \text{Al}_2\text{O}_3$  0,9—1, 2 chegarada saklab turiladi. Cho‘yan xarorati 1430—1450°С ga yetganda kimyoviy analiz kilish uchun namuna olinadi. Sungra chuyan 1540—1560°С gacha uta kizdiriladi, toshkol nasos bilan surib olinadi va chuyan kovshga kuyuladi.

Agar kimyoviy analiz berilgan kiymatga tugri kelmasa, unda zarur bulgan kushilmalarning xisobiy mikdori kiritiladi (10-jadvalga karang). Kutish pechiga 60—80 kg kvars kumi yoki shamot siniklari, 40—50 kg oxaktosh va 20—30 kg koks solinadi.


Saklab turish pechlarida chuyan xarorati, uning kimyoviy tarkibi va okartirilish darajasi nazorat kilib turiladi. Pechdan chikayotgan chuyan xarorati 1440—1480°S, kimyoviy tarkibi esa talab etilganiga muvofik bulishi kerak.

Amalda suyuklantirish pechlarining anik ishlab chikarish sharoitlariga tugri keladigan boshka kushilmalari xam uchraydi. Dupleks-protsess domna pechi elektr pechdan foydalanishning eng samaralisidir.

### **1.3. Cho'yanni yoyli elekrt pechlarda suyuqlantirish**

Yoyli pechlarda elektr energiyasini issiqlik energiyasiga o'zgartirish elektr yoyda sodir bo'ladi, u razryadning gazlardagi bir shakli hisoblanadi. Metallni yoy bilan qizdirishni bevosita, agar yoy elektrod va eritilayotgan metall orasida yonsa yoki nurlanish orqali, qachonki yoy ikki elektrodning orasida yonsa amalga oshirish mumkin. Birinchi turdag'i pechlarni to'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi pechlar, ikkinchisini – bilvosita erituvchi pechlar deb atashadi.

Cho'yanni (va po'latni) eritishda to'g'ridan-to'g'ri qizdiruvchi pechlar qo'llaniladi, chunki yuqori haroratlar o'chog'i ularda metallning sirtidagiga maksimal yaqinlashgan va shuning uchun yoyning issiqligi metallga ancha yaxshi sharoitda o'tadi. Uch fazali pechlar keng tarqalgan, ularda elektrodli, tok o'tkazuvchili va pechni egishni, ushlab turishni, elektrodlarni siljishini va shixtani yuklashni ta'minlovchi mexanizmli ishchi muhit (pechning o'zi) mavjud.



**2-rasm. Yoyli pechning sxemasi:**

1-ishchi darcha; 2-zaslonka; 3-elektrodlar; 4-gumbaz; 5-devorlar; 6-nov; 7-letka; 8-elektr yoy; 9-taglik

Pechning ishchi bo'shlig'i yuqorida qubbali gumbaz, pastdan sferik taglik va yon tomonlari – devorlar bilan chegaralangan. Taglik va devorlarning o'tga chidamli taxlami metall g'ilofga joylashtirilgan. Yechib olinuvchi gumbaz qubbali xalqaga tayanuvchi olovbardosh g'ishtlardan tayyorlangan. Gumbazdagi simmetrik joylashgan uchta teshik orqali ishchi bo'shliqqa tok o'tkazuvchi elektrodlar o'tkazilgan bo'lib, maxsus mexanizmlar yordamida pastga va yuqoriga siljishi mumkin. Shixta materiallari pechning tagiga yuklanadi; pechda ular erigandan so'ng metall va shlak qatlami hosil bo'ladi. Eritish va qizdirishelektrodlar va metalli shixta yoki suyuq metall orasida hosil bo'layotgan elektr yoy hisobiga bajariladi. Eritilgan metal va shlak nov orqali pechni engashtirib chiqariladi. Shixtani yuklash ochiq gumbaz orqali tagi ochiladagan kajava yoki pech devoridagi to'ldirish darchasi orqali muld yordamida amalga oshiriladi.

Metall chiqaruvchi teshiklar aylana yoki to'rt burchakli kesimda qilinadi; uni metall va shlak satxidan yuqorida ishchi darchaning ro'parasiga, pastki qirrasi ishchi darchaning ostonasi satxida joylashtiriladi. Teshikka ulanadigan nov shamotli g'isht bilan futerovka qilinadi.

Yoyli pechning futerovkasi elektr yoyning nurlanishiga duch keladi, shlak va metallning yemiruvchi ta'sirga, shuningdek, uyumlash vaqtidagi haroratning keskin tebranishi natijasidagi kelib chiqadigan termik ta'sirlar ostida qoladi. Gumbazning futerovkasi arkali gumbazning vertikal ta'sir etuvchi bosim kuchlari natijasidagi qo'shimcha yuklanishlarni qabul qiladi. Shuning uchun o'tga chidamli materiallar yuqori olovgabardoishlilik, termobardoshlilik va shlakka barqarorlik xossalariiga ega bo'lishlari kerak.

Yoyli pechlarni seriyali, 0,5; 1,5; 3; 6; 25; 50; 100 va 200 t sig'imda ishlab chiqariladi. Cho'yan quyish sanoatida odatda 40 t gacha bo'lgan yoyli pechlar ishlatiladi

Elektrodlar. Yoyli elektr pechlarda eritish soatida elektr tokini keltirishda ko'mirli (5 t gacha bo'lgan sig'imli pechlarda) va grafitli (undan kattaroq bo'lgan pechlardi) elektrolddar qo'llaniladi.

Ko'mirli elektrodlarni maydalangan antratsit va toshko'mir koksini qatlamlarni bog'lovchi qo'shimchali tarkibga ega bo'lgan massani presslash orqali olinib, keyinchalik

1300 0S haroratda qizdirib toblanadi; ularning solishtirma elektr qarishiligi ancha yuqori (35...60) va ruhsat etilgan tokning zichligi.


Grafitli elektrodlardiametri 75 dan 550 mmgacha tarkibida kuli kam bo‘lgan uglerodli materiallardan (neft yoki qatlamlı (peka) koksdan) tayyorlanib yuqoriroq haroratda (2600 0S atrofida) qizdirib toblanadi. Bunda uglerodning grafitlanishi sodir bo‘ladi va qo‘sishimchalar uchib ketadi. Bu elektrodlarning solishtirma elektr qarishiligi dan past bo‘lib, bu nisbatan yuqori bo‘lgan tokni zichligini o‘tkazish imkonini beradi (elektrod diametriga ko‘ra oraliqda).

Elektrodlarni silindrik shaklda tayyorlab, yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida yoyli elektrod hosil qilish uchun har bir chetida «arralangan o‘yiq» qirqiladi. Ko‘mirli uglerodlarning sarfi 1 t cho‘yan uchun kislotali jarayon uchun 10-12 kg ni asosiy jarayon uchun 13-15 kg ni, grafitli elektrodlar uchun mos ravishda 4-6 va 5-9 kg ni tashkil qiladi.

Elektrodlarni siqib ushlab turish va siljitishe mexanizmi elektrod ushlagich va elektrodnı vertikal yo‘nalishda siljishini ta’minlovchi qurilmadan tashkil topgan (ko‘tarilish tezligi 0,1 m/s va tushish tezligi 0,016-0,025 m/s). Elektrod ushlagich elektrodnı, unga tok kelishi uchun siqish va belgilangan balandlikda ushlab turish vazifasini bajaradi va kallak, siquvchi qurilma va rukavadan tashkil topgan. Elektrodlarni siljitishe qurilmasi ikkita variantga ega: karetkali va teleskopik ustunli. Birinchisida elektrod ushlagich karetkaga maxkamlanadi, u vertikal qo‘zg‘almas ustun bo‘ylab yo‘naltiruvchi ramkalarda siljeydi. Ikkinchisida – elektrod ushlagichning rukavasi qo‘zg‘almas ustunga maxkamlangan va u ichi bo‘sh vertikal qo‘zg‘almas ustunda siljiydi. Rukava qalin trubali yoki korobkali banka shaklida tayyorlanib, kallagi bilan karetkaga yoki teleskopik ustunga ulanadi.

Elektrik rejim. Yuqorida ta’kidlanganidek, yoy pech vannasida bo‘lgan moddalarning bug‘lari va ionlashgan gazlar qatlami orqali elektr energiyasini o‘tkazish vositasi hisoblanadi, uning harorati 3000 0S dan ortadi. Yoyli pech o‘zgarmas tok bilan iste’mol qiligani uchun har yarim davrda katod va anodlar almashtiriladi, yoyning kuchlanish va tok kuchi maksimumga erishadi va nol orqali o‘tadi. Yoyning quvvati  $R$ , va natijada qizdirilayotgan metallga o‘tayotgan quvvat iste’mol qilinayotgan kuchlanish (pech transformatorining ikkilamchi kuchlanishi) va yoyning tok kuchiga bog‘liq bo‘ladi va kabi aniqlanadi.

Eritish jarayonida ikkala parametr rostlanadi – iste'mol kuchlanishi va yoyning tok kuchi. Pechga kelayotgan quvvat pech transformatorining bosqichlarini ulash orqali 110-600 V oralig‘ida rostlanadi. Eritish jarayonida kuchlanishning yuqori bosg‘ichlarida ishlanadi. Bundan tashqari, o‘zgarmas quvvat keltirilayotganda kuchlanishning har bir bosqichida elektr yoyning optimal tok kuchi va quvvatini ushlab turish maqsadida avtomatik rostlagichlardan foydalanib ularning uzunligi rostlanadi. Eritish jarayonida uzun quvvatli yoylarda ishlash maqsadga muvofiq, chunki ular futerovka uchun uncha xavfli emas (yo‘ eriyotgan shixta quduqlarida joylashgan bo‘ladi). Odatda har bir pech uchun har bir kuchlanish bosqichining yoy maksimal quvvati oldindan aniqlab qo‘yiladi, va uni eritish vaqtida avtomatik quvvat rostlagichi ushlab turadi.



3-rasm. Yoysi pechda suyuq metallni elektromagnitli aralashtirish sxemasi, (a) shlakni tortib olish va (b) vannani aralashtirish rejimida:

1-stator; 2-cho‘lg‘am

**Suyuq metallni elektromagnitli aralashtirish qurilmasi** sig‘imi 25 t dan yuo‘oi bo‘lgan pechlarda mavjud bo‘ladi (3-rasm).

Aralashtirish tarkibni va haroratni bir xillashtirish, oltingugurtsizlashtirish, nometall qo‘sishmchalarni yo‘qotish va shlakni tortib olishni yongillashtirishni tezlashtiradi. Pechning tubi ostiga magnitsiz po‘latdan ikkita cho‘lg‘amli tub shaklidek egib cho‘zilgan o‘zak (stator) tayyorlangan. Stator cho‘lg‘amlari ikki fazali past chastotali tok (0,5-2 Gs) bilan iste’mollanadi, ularning siljish burchagi 90 0 bo‘lib, metallda yuguruvchi magnit maydon hosil qiladi. Magnit oqimi bilan birgalikda metallda uyurmaviy oqimning ko‘chishi o‘zaro ta’siri metallning pastki qatlamini ma’lum yo‘nalishda siljishini

boshlaydi, metallning yuo‘ori qatlamlari pastki qatlamlarga nisbatan teskari yo‘nalishda siljiydi. Elektr energiyasining sarfi 18-72 kJ/kg ni tashkil qiladi.

### **Jarayonning umumiy tasnifi**

Yoyli pechlarda metallning suyuqlinishi elektrodlar va metall orasida yoy elektr zaryadlarini yonishidan ajralib chiqayotgan issiqlik hisobiga sodir bo‘ladi. Yoydagि harorat 100000S ga yetishi mumkin, shuning uchun jarayon ancha samarali bajariladi.

Marten jarayonlaridan farqli ravishda po‘latlarni eritishda fizik- kimyoviy reaksiyalarda asosan metalli va shlakli fazalar ishtirok etadi. Pechga kislород uchun yo‘l ancha cheklangan. Mavjud po‘lat erituvchi jarayonlardan elektroeritish usuli keng tarqalgan bo‘lib, eng zo‘r sifatli va barcha markadagi po‘latlarni eritish imkoniga ega(0,5-2 Gs).

Elektr yoyli pechlarda qizigan shlak mavjud bo‘lib, undan zarali aralashmalarni chiqarib tashlash va metallga zarur bo‘lgan elementlarni kiritish mumkin.

Po‘latni elektr yoyli pechlarda eritish jarayoni quyidagi davrlardan tashkil topgan: yuklash va eritish, oksidlash, qayta tiklash va oksidsizlantirish davrlari.


### **Jarayonning fizik-kimyoviy tasnifi**

Eritish va o‘ta qizdirishda aralashmalarning oksidlanishi sodir bo‘ladi. Oksidlanish uchun kislород asosan temir rudasidan keladi, u yuklanishga maxsus kiritiladi va zaruratga ko‘ra qo‘shib turiladi yoki metallga toza kislород purkab turilishi mumkin.

Elektr yoyli eritishda oksidlanish davrining mavjudligi majburiy emas. Metallurgiyada jarayonning uchta turini farqlaydilar: aralashmalarning to‘liq, qisman oksidlanishi, aralashmalarning oksidlanmasligi. Oddiy uglerodli po‘latlarni eritishda jarayon ratalashmalarni oksidlash bilan olib borilib, bu ancha ifloslangan shixta materiallarini qo‘llash va defosforatsiyava desulfuratsiya jarayonlarini amalga oshirish imkonini beradi. Aralashmalarni oksidlamasdan eritish jarayoni legirlangan po‘latlarni olishda qo‘llanilib, bungan sabab legirlovchi elementlarni saqlab qolish. Bunda shixtaga yuqori talablar qo‘yiladi.

Shixtani eritish bosqichlari 4-rasmda ko‘rasatilgan. Dastlab yoy shixta va elektrod orasida yonadi, yuqo‘orida ta’kidlanganidek, yoyni barqarorligini oshirish uchun eritishning birinchi daqiqalarida elektrodlar ostiga koks parchalari yoki elektrod siniqlari qo‘yiladi. Ular yonib bo‘lgandan so‘ng metall erishni boshlaydi va tomchi xolda tubga oo‘ib tushadi. Shixtada quduqlar xosil bo‘ladi va ular bo‘ylab elektrodlar vannaning tubiga yetmaguncha

chuqurlashib boradi va bu vaqtida metall erigan qatlami xosil bo‘ladi.



4-rasm. Yoyli pechlarda shixtani eritish bosqichlari: a-eritishning boshlanishi;  
b-quduqlar hosil qilish; v-eritishni tamomlash

Elektrodlar bilan suyuq metall xosil qilish mobaynida pechga shlakni xosil qilish uchun bir necha marta quruq kvars qumi solinadi, bu eritishning oxirida suyuq cho‘yan massasining 4-5% tashkil qiluvchi miqdorda normal shlak qoplamasiga ega bo‘lish uchun qilinadi. Elektrod va suyuqlangan metall oraisda yonayotgan yoy metalni yanada qizdiradi va quduqning atrofidagi shixtani o‘pirilishiga va erishiga olib keladi. Quduqlar kengayadi, vannadagi erigan metallning satxi ortadi, elektrodlar esa sekin-asta ko‘tariladi. Bu davrning oxirida metallning deyarli barchai erib bo‘ladi, vannaning chetlarida alohida bo‘laklar qolishi mumkin va ular oxirida eriydi. Eritish davrini qisqartirish uchun bu bo‘laklar lom bilan pechning markaziga itarib turiladi.

Eritish jarayonida shixta bo‘laklarining payvandlanishini oldini olish uchun, ya’ni «ko‘priklar» xosil bo‘lishini, chetdagi shixtaning bo‘laklarini o‘z vaqtida suyuq vannaga itarib yuborish kerak. Shixta bo‘laklari payvandlanib qolganda tokni o‘chirish kerak, elektrodlarni ko‘tarib, gumbaz ochiladi, xosil bo‘lgan quduqlarga mayda shixtalar tashlanadi va ular eritiladi. Kam zichlikka ega shixta materiallari bo‘lgan xolda pechda o‘tirib qolgan shixtaga eritishning boshlanishida massasi bo‘yicha zarur miqdordagi shixtani yuulash mumkin. Erigan metallga shixtani yuklash qat’iyan man etiladi, chunki bunda suyuq metall pechdan sachrab ketishi mumkin.

Pechning ishchi darchasi qoqpog‘i eritish vaqtida zich yopilgan bo‘lishi kerak. Uni ochishga faqat shixta pechning chetlaridan itarib tashlash, shlakni chiqarish, qo‘shimchalarni kiritish va namuna olish uchun ruhsat etiladi.

Eritishning butun jarayoni davomida metall vannasining qaynab ketishiga yo‘l qo‘yilmaslik kerak. Buning oldini olish uchun shlakka ikii uch lopatka maydalangan koks, elektrod siniqlari yoki yog‘och ko‘miri parsalari qo‘shib turiladi. Eritish jarayoni barcha shixta suyuq xolga o‘tganda yakunlangan hisoblanadi. Bu momentga kelib yoyning yonish rejimi ancha barqaror bo‘ladi, chunki metallning harorati ortadi va uning sirti shlak qatlami bilan qoplangan bo‘ladi. Bu davrda yoyning uzunligi eritishning boshiga nisbatan bir necha barobar ortadi va yoy barqaror yonadi. To‘liq eritishdan 10-15 daqiqa oldin metallni o‘ta qizishi va pechning devor va gumbazini erishini oldini olish uchun transformatorni «uchburchak”dan «yulduzcha”ga qayta ulash yo‘li bilan keltirilayotgan quvvatni kamaytirish lozim.

To‘liq eritilgan va qo‘shimchalar qo‘shilgandan so‘ng shixtaning hisobiga ko‘ra vanna yaxshilab aralashtiriladi va ekspress-analiz uchun proba olinadi. Pechga ferrosilitiyani eritishning xoxlagan vaqtida kiritish mumkin, chunki kislotali pechda kremniyning kuyishi sodir bo‘lmaydi.

## Nazorat savollari

1.   Yoy pechida suyuqlantirish texnologiyasi
2.   Induksion pechda suyuqlantirish texnologiyasi.
3.   Elektr - yoy pechlarida qaysi qotishmalarni suyuqlantiriladi?
4.   Qanaqa markali induksion pechlarni bilasiz?
5.   Gaz va metallarning o‘zaro ta’sirida, ya’ni ular orasida kontakt bo‘lganda, qanday jarayonlar bo‘lishi mumkin?

## Foydalanilgan adabiyotlar

1.   Rasulov S.A., Grachev V.A. Quymakorlik qotishmalarini suyuqlantirish va pechdan tashqari ishlov berish. Darslik. – Toshkent – 2020. –313 b.
2.   Rasulov S.A. Quyma mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish. Toshkent: —Fan va texnologiya, 2019, 183 b.

## **2-mavzu: Maxsus elektr pechlarda po‘lat eritib olish.**


**Reja:**

1. Maxsус электр печлари.
2. Вакуум – ёй печлари.
3. Электрон-нур печлари.
4. Плазма-ёй печлари.

*Tayanch so ‘z va iboralar: Elektr pech, po ‘lat, azot, detallar, garnisaj vakuum pechi, vakuum, eritish, o ‘zgarmas tok, uglerodli elektrodlar, elektron nurlar, plazma, plazmatron, fosfor va oltingugurt, elektron-nur pechi.*

### ***Maxsus elektr pechlari.***

*Maxsus elektr pechlari kislород, олтингугурт, водород, азот, нометалл қо‘шilmalar va rangli metallarning зараrlи қо‘shilmalari bo‘yicha juda тоzaligi bilan ajralib turuvchi o‘ta sifatli po‘lat olish uchun mo‘ljallangan. Bu pechlarda po‘lat eritib olish қо‘shimcha xarajatlar talab etadi, maxsus тоzalangan va tayyorlangan shixtadan foydalaniladi, bu shixta oldindan ochiq. pechlarda eritib olinadi, bu pechlarda esa zagotovka tarzida qayta eritiladi. Pechlar murakkab va qimmat turadigan jixozlarga ega va odatdagi pechlarga qaraganda ish unumi past. Shu boisdan maxsus pechlarda eritib olinadigan ayni shu markadagi odatdagi yuqori sifatli po‘latdan 1,5—4 marta qimmat turadi. Maxsus po‘latdan muxim vazifali detallar quyiladi.*



Garnisaj vakuum pechining tuzilishi:

1 — vakuum kamerasi, 2 — qolip, 3 — g‘ildiraklar, 4 — qotib qolgan me-tall qatlami, 5 — garnisaj pech, 6 — yoy, 7 — elektrod.

## 2.2. Vakuum – yoy pechlari.

Vakuum – yoy yepchilarini. Po‘lat quymalar ishlab chiqarish uchun vakuum – yoy pechlari berilgan tarkibli po‘latdan tayyorlangan eritish davomida sarflanadigan elektrod 7 bilan ishlaydi. Yoyning turg‘un yonishini ta’minlash uchun pechlar o‘zgarmas tokda ishlaydi. Pechdagi bosim  $0,1 - 1 \text{ Pa}$  ni tashkil etadi. Yoyning yonishida elektrod uchida yupqa parda xosil qiladi, keyinchalik u tomchi xolida ajraydi va vannaga tushadi. Suv bilan sovitiladigan pech 5 kojux 1 li vakuumli kamerada joylashgan, suyuq metalni qolip 2 ga qo‘yishda kojux galtaklar 3 da dumalaydi. Eritish boshida suv bilan sovitiladigan mis tigel ichida qattiq metall po‘stlogi xosil bo‘ladi, u suyuq metalning qolgan qismini tez sovishdan saqlaydi. Bu pustloq garnisaj deb ataladi, shu sababli pech xam garnisajli pech deb ataladi.

Vaakuum yoy pechida olingan metall gazlar va rangli metall qo'shilmalari bo'yicha juda toza xisoblanadi. Qayta eritish vaqtida qo'rg'oshindan yaxshi tozalanadi, rux, vismut, kadmiy, surmadan kamroq va qalaydan juda oz tozalanadi.

### **2.3. Elektron-nur pechlari.**

Ular tez uchadigan elektronlar kinetik energiyasining elektronlari qizdiriladigan metalga urilganida ajrab chiqadigan issiqlik energiyasiga aylanishi prinsipida ishlaydi. Bu quyidagicha sodir bo'ladi. Qizdirilgan volfram katoddan elektronlar uchib chiqadi, ular kulon qonuniga ko'ra musbat zaryadlangan anodga tortiladi va unga qarab katta tezlikda uchadi, tezlatuvchi kuchlanish (anod va katod potensiallarining farqi unlab kilovoltga teng bo'la-di) kancha katta bo'lsa, bu tezlik shuncha katta bo'ladi. Elektronlar metalga tekkanida sekinlashadi, uzining kinetik energiyasining katta qismini metall zarralariga beradi va metalni qizdiradi. Elektronlar energiyasining bir qismi sekinlashishda rentgen nurlari tarzida yo'qoladi, tezlatuvchi kuchlanish ortishi bilan bu nurlanishning jadalligi xam ortadi.

50 kV dan ortiq kuchlanish bu pechlarda ishlatilmaydi, chunki bunday kuchlanishda xodimlarni rentgen nurlaridan ximoya qilish murakkablashadi. Pech o'zgarmas tokda va 0,01—0,1 Pa bosimda ishlaydi. Bunday chuqur siyraklanish elektronlarning gaz molekulalari bilan to'qnashgandagi sochilishini kamaytirish uchun zarurdir.

Elektronlar oqimi juda zich bo'lgan xollardagina metallni samarali qizdirish mumkin. Biroq elektronlar, bir xil zaryadlangan boshqa yakka zarralar kabi, o'zaro itarishadi va turli tomonga uchib ketishga (sochilishga) intiladi. Elektron nur deb atalgan zich dasta xosil qilish uchun fokuslovchi qurilmalardan foydalilanadi.


Elektron nurlarni chiqarish, tezlatish va fokuslash uchun xizmat qiladigan qurilmalar elektron to'plar deb ataladi. Xalkali katodli qurilmalarda burlanayotgan metall buglari katodni shunday tez zaxarlaydiki (elektronlar chiqarish xususiyatini kamaytiradi), xatto ish boshlangandan bir necha soat o'tishi bilan u ishdan chiqadi. Murakkab tuzilishli to'plarda avtonom vakuumlash sistemasi bo'lib, unda katodning to'xtovsiz ishlashi yuzlab soat davom etishi mumkin.

Elektron-nur pechlarining ishlash prinsipi rasmida ko'rsatilgan. Elektron to'plar 1 va 2 yordamida suv bilan sovitiladigan garnisaj pech 3 da suyuq metall porsiyasi eritib olinadi, shundan keyin pech qiyalatiladi va metall suv bilan sovitiladigan kolip 4 ga qo'yib olinadi.

Bunda to‘plarning biri 2 vannani isitadi, ikkinchisi 1 tigel tumshuridagi kuygichni yoki qabul voronkasini isitadi. Issiqlikning bunday taqsimlanishi qiyin suyuqlanadigan metallardan quymalar ishlab chiqarishda ayniqsa muximdir.


#### **2.4. Plazma-yoy pechlari.**

Plazma moddaning to‘rtinchi xolati bo‘lib (qolgan xolatlari — qattiq, suyuq va gazsimon), shu bilan farq qiladiki, unda gaz molekulalarining ko‘p yoki kam qismi ionlashgan ko‘rinishda bo‘ladi. Po‘lat eritish uchun ionlanish darajasi 1 % bo‘lgan past xaroratli ( $1000\text{--}30000^{\circ}\text{S}$ ) plazmadan foydalanila-di. Plazma xosil qilish uchun maxsus qurilma — plazmatron qo‘llanadi, u plazma-yoy pechlarining asosiy elementidir. Plazmatron qopqoqli, suv bilan sovitiladigan korpus 1, volfram uchlikli katod 2 va soplo ko‘rinishidagi teshikli anod 4 dan tashkil topgan. Plazmatronning yuqorigi qismida katod bilan korpus orasiga plazma xosil qiladigan gaz kiritiladigan teshik bor. Plazmatron o‘zgarmas tok bilan ishlaydi, bu tok yarim o‘tkazgichli to‘g‘rilagichlar yordamida xosil qilinadi. Ish boshida yoy katod bilan anod orasida xosil bo‘ladi, keyin plazmatronga gaz beriladi. Gaz oqimi soplidan otilib chiqadi, yoy 5 ni undan uzadi va suv bilai sovitiladigan katalizatordagи metalda zanjirni berkitadi, bu katali-zator xam anoddan iborat. Katod bilan metall orasida yoy xosil bo‘lganidan keyin zanjirdan soplo — plazmatron anodi uziladi. Plazmatron ko‘tarilib, yoy 1—2 m uzunlikda cho‘ziladi. Plazma yoyining yuqori xarorati eritish tezligini va eritilgan metall 7 ni isitishni oshiradi. Yoyning katta uzunlikda yonishi uning turg‘unligini ta’minlaydi. Bu xol elektronlarni siljitish va tarmoqni qisqa tutashuvlardan saqlash uchun jixozni soddashtirishga imkon beradi. Ayni vaqtda elektronlarning sinishi yoki ularning uzilishi ruy bermaydi. Uglerodli elektrodlarning bo‘lmasligi metalning uglerodlanishini istisno qiladi va kam uglerodli po‘latlar xamda qotishmalarni eritishga imkon beradi.



*Elektron-nur pechi:*

*1 – elektron pushka; 2 – vanna 3 – garnisaj pechi; 4 – qolip.*



*Gaz bilan ishlaydigan*

*plazmatronning sxemasi:*

*1–korpus; 2 – katod, 3 –volframli poynak; 4–miss sanod; 5 – yoy;*

*6 – kristallizator, 7–qayta suyuqlantirilgan metall.*

Argondan neytral atmosfera xosil kilinishi metallni vodorod va azotdan tozalashga, yuqori sifatlari metall olishga imkon beradi. Yuqori sifatlari po'lat va qotishmalar ishlab chiqarishda plazma-yoy pechlaridan keng foydalanishning sababi ana shu.

Plazma-yoy pechlari tuzilishi jixatidan odatdagagi yoy pechlariga o'xshash. Unda elektronlar o'rniga bitta yoki bir nechta plazmatron 1 o'rnataladi, metalga musbat kuchlanish berish uchun pech tubiga suv bilan sovitiladigan mis elektrodlar 2 yotqiziladi.

Plazma-yoy pechlarida po'lat eritish odatda qayta eritish yo'li bilan olib bornladi, biroq uni oksidlash yuli bilan xam olib borish mumkin. Fosfor va oltingugurti bo'lмаган тоза шихта олинади ва ба'зан у оксид pardalardan va zangdan tozalanadi. Shixta pechga odatdagidek tashlanadi. Pech yuklanib, gumbaz bilan berkitilgandan keyin yuvish ishlari bajariladi. Shu maqsadda plazmatoronlardan biri orqali pechga argon beriladi, u og'ir gaz bo'lganligidan pech bushliridan xavoni siqib chiqaradi. Xavo pechdan gumbazdagi teshik orqali chiqadi, u qolgan ikki plazmatronning ko'tarilgan xolatida ochiq turadi. So'ngra plazmatronlar tushiriladi, tok beriladi va eritish boshlanadi. Shixtada quduqlar tez kuydirib ochiladi, shixtaning qolgan qismini eritish uning o'ta qizigan vannada erishi xisobiga boradi. Eritib bo'lingandan keyin gazlardan tozalash uchun metall bir oz tutib turiladi, zarurat bo'lganida esa oksidsizlantiruvchilar va legirlovchilar qo'shiladi.

E l e k t r o n – t o sh q o l p e ch l a r i . Quyma elektr-toshqol metall suv bilan sovitiladigan kristalizatorda, sarflanadigan elektrodning qayta erishi natijasida olinadi. Kristalizator va elektrod o'zgaruvchan tok fazalari xisoblanadi. Kristalizator xosil qiluvchi yuzaga ega bo'lib, detalga juda o'xshab ketadi, elektrod esa qolip yaxshi to'lishi uchun

uzunligi

va


kesimi

bo'yicha


o'zgaruvchan

profilli

bo'ladi.



**Plazma-yoy pechi.** 1 – plazmotron; 2 – elektrod.



Suyuq po'latni kovshda argon gazi bilan tozalash sxemasi:

1–argon; 2–o'tga chidamln qistirma; 3–metall qistirma; 4–o'tga chidamli qoplama; 5– qo'shimcha.

Suyuq metall tozalovchi toshqol orqali o'tganligi, shuningdek, asta-sekin eriganligi va kristallashganligi sababli tayyor xolida mexanik xossalarga ega bo'ladi, deformatsiyalangan metaldan qolishmaydi.

## Nazorat savollari

1. Maxsus elektr pechlari qanday metall olish uchun mo‘ljallangan?
2. Vakuum – yoy pechlari qanday pech xisoblanadi?
3. Plazmatronning ishlash prinsipi?
4. Suyuq po‘latni kovshda nima bilan tozalanadi?
5. Quyma elektr-toshqol metall qanday olinadi?

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov S.A., Grachev V.A. Quymakorlik qotishmalarini suyuqlantirish va pechdan tashqari ishlov berish. Darslik. – Toshkent – 2020. –313 b.
2. Rasulov S.A. Quyma mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish. Toshkent: —Fan va texnologiya, 2019, 183 b.

### **3-mavzu. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirib olish.**

#### **Reja:**

1. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish.
2. Yukori sifatli kotishmalar olish.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Oksid, shixta, zararli kushilmalar, suyuklantirish agregati, alyuminiy kotishmalari, mazut, tuprok, induksion pech, geksaxloretan, flyus, tozalash, maxsus kamera, vakuumlash, modifikatsiyalash.

#### **3.1. Alyuminiy qotishmalarini suyuqlantirish.**

Alyuminiy kotishmalari suyuklantirish vaktida oson oksidlanadi, gazlar va zararli kushilmalar erib ketadi.

Suyuklanma sirtida puxta oksid parda xosil buladi va bu parda uni keyingi oksidlanishdan saklaydi. Kotishma suyuklangan alyuminiyda erib ketmaydigan alyuminiy oksidi bilan ifloslanishi mumkin, uni fakat tozalash yuli bilan chikarib yuborish mumkin. Alyuminiy kotishmalarda gazlar, asosan vodorod juda tez eriydi, natijada kuymalarda govaklilar xosil buladi. Shu boisdan alyuminiy kotishmalari suyuqlantirib olishda shixta ashyolari va suyuklantirish agregatini turi tanlashning axamiyati katta.



Alyuminiy kotishmaları turli pechlarda suyuklantiriladi. Mayda seriyalab ishlab chikarish sexlarida gazda yoki elektrda ishlaydigan tigelli pechlar yoki sigimi uncha katta bulmagan kaytarish pechlari (aks ettirish pechlari) ishlatiladi. Alyuminiy kuplab ishlab chikariladigan pechlarda gazda yoki elektrda ishlaydigan aks ettirish pechlari, karshilik pechlari yoki sig‘imi 5 t cha bulgan induksion pechlar kullaniladi.

Suyuklantirish vaktida tigelli pechlar erib ketmasligi va alyuminiy kotishmasi temirga tuyinmasligi uchun ular chuyandan tayyorlanib, ichi utga chidamli buyok bilan buyaladi yoki utga chidamli g‘isht teriladi.


### **3.2. Yukori sifatli kotishmalar olish.**

Suyuklantirish. Misol tarikasida Al<sub>2</sub> kotishmasini suyuklantirib olishni kurib chikamiz. Bu kotishmani silumining kichik kuymalarida, u bulmaganida alyuminiy-kremniy ligaturasidan foydalanib suyuklantirish tavsiya etiladi. Bu kotishmaning shixtalariga kichik kuyma xolidagi silumin, birlamchi alyuminiy, tarkibida 12—15 % bulgan alyuminiy-kremniy ligaturasi, 35—50 % gacha ishlab chikarish chikindilari, 15 % gacha ishlab chikarish kirindilari kayta suyuklantirib olingan chushkalar kiradi.


Shixta toza, kuruk, moy, mazut, tuprok bilan ifloslangan bulishi kerak. Shixta ashylari pechga solishdan oldin 100—150°S gacha kizdiriladi. Yaxshilab kuritilgan va kizdirilgan tigel 600—700°S gacha isitiladi. Sungra unga ishlab chikarish chikitlari solinadi va ular suyuklanganidan keyin silumin yoki alyuminiy chushkalari solinadi. Shundan keyin alyuminiy-kremniy ligaturasi solinadi va suyuklanma yaxshilab

aralashtiriladi. Xarorat 680—700°S gacha yetkaziladi va geksaxloretan (S2S1b) yoki kuruk xlor tuzlari (znCl yoki MnSl2) bilan tozalanadi.

Geksaxloretan gazni uzida yaxshi eritish xossasiga ega, u A1S13 dan tashkari gazsimon tetraxloretilen xosil kiladi:



Gazsimon tetraxloretilen S2S14 yirik yuzaga tez kalkib chikadigan pufaklar tarzida ajralib chikadi, bu esa unga suyuklanmadagi vodorodning diffuziyalanishini kiyinlashtiradi va bu bilan tozalash samaradorligini pasaytiradi. Shu bois shixta massasidan 0,5—1 % mikdoridagi geksaxloretan kotishmaga bulib-bulib solinadi, tozalash xarorati 730—750°S



### Induksion pechi

1-pech qopqog‘i (svod), 2-induktorlar, 3-alyumin shixta, 4-tigel.

### Rafinirlash usullari.

Flyus bilan tozalash. Kotishma vannasini yopib turgan flyuslar uni pech muxitining ta’siridan saklaydi, suyuklanmaning oksid kushilmalardan tozalanishiga va gazining

chikib ketishiga yordam beradi. Flyuslar sifatida natriy xlorid va kaliy 1:1 nisbatda ishlatiladi. Ular oson eriydigan evtektika xosil kiladi. Shixta massasidan 2—3 % mikdoridagi ustiga solinadigan flyuslar chushkalarning ustiga ular pechga solinishi bilanok sepiladi. Shixta suyuklanganidan keyin shixta massasidan 0,5—1 % mikdoridagi flyus suyuklanma ustiga sepiladi. Keyin uning ustiga flyusni kuyultirish uchun natriy ftorid solinadi, flyus olib tashlanadi va suyuklanma idishlarga kuyiladi.

Kotishmalarni vakuumlash. Bu usulning moxiyati shundan iboratki, bosim pasayishi bilan suyuklanma sirtida vodorodning kotishmada erishi kamaya- di. Kotishmada ionlashgan tarzda yoki atom xolida bulgan vodorod molekulyar xolatga utadi, pufakchalar xosil bulib, ular sirtga kalkib chikadi. Kotishma kuyishdan oldin maxsus kamerada vakuumlashtiriladi, u yerda vakuum-nasos 0,13—1,3 kPa atrofidagi siyraklanishni saklab turadi. Vakuumlash vakti 10—15 min.

Yukori sifatli kotishmalar olishning eng takomillashgan usuli vakuum ostida suyuklantirish va kuyishdir.

Vakuumda kuyganda kotishma oksidlanmaydi, bu esa kotishmalarning kristallanishi uchun yaxshi sharoit yaratib beradi. Vakuumda suyuklantirish maxsus jixozlangan induksion pechlarda olib boriladi.

Alyuminiy kotishmalaridagi gazlar ultratovush bilan ishlov berib chikarib yuboriladi. Ultratovush tulkinlari suyuklanmadan utganida zarralarning elastik tebranishi yuzaga keladi. Inersiya natijasida ayrim zarralarning kaytma-ilgarilama xarakati tezligi turlicha bulishi natijasida suyuklikning yaxlitligi vak- tincha buziladi va chukur vaakuumli mikrogovaklar xosil buladi. Bu govaklarga kotishmada erigan gazlar intiladi va u yerda pufakchalar xosil buladi. Zarralar teskari tomonga xarakat kilganida gazlar sikiladi, birok molekulyar vodorod kotishmaga utmaydi. Suyuklanmaning yaxlitligi keyinchalik yana buzilganida pufakchalar kattalashadi va atmosferaga chikib ketadi.

Modifikatsiyalash tarkibida kup mikdorda kremniy bulgan kotishmalar uchun zarur texnologik operatsiyadir. Kremniyning katta plastinka tarzidagi toshkollari kotishmaning mexanik xossalari yomonlashtiradi. Modifikatsiyalash uchun natriy ishlatiladi, u kotishmaga NaF, NCl aralashmalari tarzida, masalan, 67 % NaF va 33 % NaCl solinadi.

Alyuminiy kotishmalarini modifikatsiyalovchi flyuslar yordamida xam ishlashi mumkin. Suyuklantirib olingen maydalangan va 2,5 nomerli elakdan utkazilgan modifikator shixta massasidan 1,5—2 % mikdorida suyuklanma ustiga sepiladi. Suyukanma flyus ostida 10—15 min tutib turiladi, sungra flyus 2—3 min. davomida aralashtirib turiladi. Modifikatsiyalab bulinganidan keyin flyus olib tashlanadi va kotishma koliplarga kuyiladi. Natriy kuyib ketmasligi uchun modifikatsiya boshlangan paytdan kuyish tugaguncha 30 min vakt utishi kerak. Agar shu vakt ichida kuyish tugatilmasa, kotishmaning kolgan kismini ikkinchi bor modifikatsiyalashga tugri keladi.

### **Nazorat savollari**

1. Alyuminiy qotishmali qaysi sohalarda ishlataladi?
2. Alyuminiy qotishmasiga temir va kremniy qanday tasir ko‘rsatadi?
3. Texnikada alyuminiyi qaysi qotishmali ishlataladi?
4. Texnikada nechta guruh alyuminiy qotishmali ishlataladi?
5. Al-Si qaysi guruh siluminlariga kiradi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Kostenko YU.I., Filipenkov A.A., Milyaev V.M., Afanaskin A.V., Churkin B.S., Gofman E.B., Churkin A.B. Texnologiya liteynogo proizvodstva. Uchebnik, Yekaterinburg, RGTPTU, 2018, 682 s.
2. Rasulov S.A. Quyma mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish. Toshkent: —Fan va texnologiya, 2019, 183 b.

## IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

### **1-amaliy mashg'ulot. Po'latni induksion pechida suyuqlantirish.**

**Ishning maqsadi:** Po'latni induksion pechida suyuqlantirish

eritish texnologiyasini o'rganish, po'latni induksion pechida suyuqlantirish

uglerodlovchi qo'shimchalar bilan modifikatsiyasini (turlanishini) o'rganish.

#### **Nazariy qism**

Po'latning sharsimon grafit bilan olish uchun uglerodlovchi va sferalovchi modifikatsiyadan foydalilaniladi. Sferalovchi modifikatsiyadan cho'yanning grafit strukturasini sharsimon shaklga keltirish maqsadida foydalilaniladi. Sferalovchi modifikatsiyalash uchun cho'yan tarkibiga birlamchi Mg, magniy qotishmalari, kompleks modifikatorlar JKMK1 ...JKMK6, RZM li legirlovchilar, legirlovchilar (magniy – nikel, magniy – nikel – RZM, JKMg1 JKMg2 markali magniy – mis, temir – kremniy – magniy , mis – nikel – magniy – seriy, magniy – kremniy – temir – RZM) va elektr pechlarda eruvchi boshqa legirlovchilar.


Grafitni sharsimon shaklda olish uchun cho'yan tarkibidagi magniyning qoldiq miqdori turli quymalarda 0.03 ....0.06% dan kam bo'lmasligi kerak.

Kompleks sferalovchi modifikatorlarni modifikatsiyalashda kalsiy, , RZM va magniyning umumiy miqdori ko'rsatilgan magniyning yuqori ko'rsatgichi bilan ekvivalent bo'lishi kerak. Elektr pechlarida erigan cho'yan tarkibiga sferalovchi modifikator kiritilishidan oldin uglerod to'dasini hosil qilish uchun cho'yanni grafit kukunini 0.3...0.5% ga siqish shart.

Modifikator sifatida tanlaymiz:

Modifikatorlar	O'rtacha tarkibi, % hisobida					Zichligi 10-2 kg/m3
	Magniy	Kremniy	Kalsiy	Nikel	Boshqa elementlar	

Ni-Si-Fe-Mg	5...20	30 gacha	-	20...50	1.0 gacha Ce	6.5...7.5
-------------	--------	----------	---	---------	--------------	-----------



1-Rasm. Induksion pechi

## Eritish

Shixtani yeritish transformatorning maksimal quvvatidan foydalanib amalga oshiriladi. Birinchi 5...10 daqiqa „yulduz holatida ishlab , keyin yesa „uchburchak holatiga o‘tiladi va maksimal nagruzka ishga tushiriladi. Suyuq cho‘yan paydo bo‘lishi bilan shlakni to‘ldirishga o‘tiladi – shlak asosini yaxshilash uchun so‘ndirilgan ohak yoki ohaktosh kiritiladi. Eritish jarayonida ohaktosh sarfi shlakning 3% ni tashkil yetadi. Barcha materiallar quritib qizdirilgan va 100 mm gacha bo‘laklarda tashlanadi. To‘la erish yakunlanishidan 10 – 15 daqiqadan oldin pechning devorlari va qubbasi ortiqcha qizib ketishi yoki erib qolishini oldini olish maqsadida transformator quvvati kamaytirilib „uchburchak usulda ulash usulidan,, yulduz usulida ulash usuliga o‘tiladi.

## Kovsh sig‘imi (hajmi)

Kovsh hajmini hisoblashda quyidagi formuladan foydalilanadi:  $M=(\Delta t/\Delta t_1)P_i$ ,

M – quyish varonkasining metal sig‘imi, kg;

$\Delta T$  – quyishning ruxsat yetilgan intervali (chegarasi)  $^{\circ}\text{C}$ ;

$\Delta T_1$  – bir formani quyishda kovshdagi metal temperaturasini pasayishi,  $^{\circ}\text{C}$  ;

$P_i$  –bir formaning metal hajmi, k.

$\Delta t=40^{\circ}\text{C}$ ,  $\Delta t_1=10^{\circ}\text{C}$ ,  $P_i=25\text{kg}$ .

$$M=(40/10)*25=100\text{kg}.$$

Quyish kovshining metal sig‘imini hisobi

### **Metall quyish temperaturasi.**

Quyish temperaturasi shakli quyma devori qalinligi va quyilayotgan eritma bilan bog‘liq. Quyma devori qalinligi - 5...10 mm, quyish temperaturasi –  $1410\dots 1470^{\circ}\text{C}$ . Ko‘rsatilgan quyish temperurasini hosil qilish uchun pech ichidagi metal temperurasini kovshga quyuilganda yo‘qotgan temperaturalar yig‘indisidan yuqori bo‘lishi kerak.

$$t_p=t_{quy}+\Delta t_{ch}+\Delta t_{qq}+\Delta t_{Tr}+\Delta t_{yo'q},$$

$t_p$  – pechdagisi metal temperurasasi;

$t_{quy}$  – shakl quyish temperurasasi;

$\Delta t_{ch}$  - pechdan chiqarishda yo‘qotilan temperatura ;

$\Delta t_{Tr}$  - quyish joyida transportirovka natijasida yo‘qotilan temperatura;

$\Delta t_{yo'q}$  – shakl quyish vaqtida yo‘qotilan temperatura;

$$t_{quy}=1460^{\circ}\text{S}; \Delta t_{quy}=30^{\circ}\text{S}; \Delta t_{qq}=30^{\circ}\text{S}; \Delta t_{Tr}=25^{\circ}\text{S}; \Delta t_{yo'q}=20^{\circ}\text{S}$$

$$t_p = 1460+30+30+25+20=1565^{\circ}\text{C}.$$

**Metallni chiqarish.**  $750-800^{\circ}\text{C}$  gacha qizdirilgan quyish kovshi pechga o‘rnataladi, metal kovshga (varonkaga) solinadi. Kovshdagi metal ko‘rsatgichi uning 7/8 balandligidan oshmasligi kerak.  $500-800\text{kg}$  2 ta kovsh ishlatish. Metallni quyish metal quyilishini kuzatgan holda bir xil olib boriladi. Pech dastlabki holatiga olib kelinadi, metal yuzasidagi shlak kovshga olinadi. Metallni kovshga quyish pech to‘la bo‘shamaguncha takrorlanadi.

Pechdan shlak qoldig‘ priyaok yoki shlakovnaga quyiladi. Pech shlakdan yaxshilab tozalanadi.Ta’mirlash ishlari olib borilib, keying eritish jarayoniga o‘tiladi.

### **Ishni bajarish tartibi.**

- a) Berilgan marka va quyma devori qalnligidan kelib chiqib modifikatsiya texnalogiyasini tanlash.
- b) Shixtani hisoblash.
- c) Shixtani tayyorlash va pechga yuklash.
- d) Pechni yoqgandan keyin 1 jadvalga eritish jarayonidagi yelektr ko‘rsatgichlari o‘zgarishini qayd etib borish.
- ye) FS – 75 hisobi bo‘yicha kerakli narsalarni tayyorlash.
- f) Mexanik sinash uchun quymani 2 ta shaklda tayyorlash.
- g) Metal erigandan so‘ng termopara yordamida qizib boririshini nazorat qilish.
- h) Yetarli temperaturada modifikatsiyalanmagan cho‘yandan 1 ta shakl quyib olish.
- i) Modifikatsiyalangan cho‘yanni kovshga olib undan 2-shaklni quyish.

### **Nazorat savollari.**

1. Kulrang cho‘yanni grafitini shar shaklida olish uchun nimadan foydalilanadi?
2. Modifikator sifatida elementlar qanday tanlanadi?
3. Cho‘yanni erishi haqida gapirib bering?
4. Kovsh hajmi qaysi formula yordamida hisoblanadi?
5. Metal quyish temperaturasi?


### **2-amaliy mashg‘ulot. Induksion pechining tuzilishi.**

**Ishning maqsadi.** IST 006 induksion suyuqlantirish moslamasini tuzilishini o‘rganish. Bunda tok manbaidan uzilgan xolda master yordamida bajariladi. Pech tuzilishini o‘rganish. Pechni yeskezlashtirish, Induktor diametri, trubka diametri. Induktor cho‘lg‘ami soni otpayka bilan va otpaykasiz parametrlari xaqida xisobot yozish. Chastota xosil qilish texnika xarakteristikalar bilan tanishish. Ishga tushirish va sovitishni tuzilishi. Kondensator batareyalari tuzilishi bilan tanishish.

### **Nazariy qismi**

Induksion pechining ishlashi.

